

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRILIGI**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”

O‘ZDTU rektor

I. Tuxtasinov

2026-yil

**Oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutiga kiruvchilar uchun
23.00.04-Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqa taraqqiyotining siyosiy
muammolari ixtisosligidan**

DASTUR

Toshkent – 2026

23.00.04 – Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaq taraqkiyotining siyosiy muammolari mutaxassisligi bo'yicha tayanch doktorantura va mustaqil izlanuvchilikka kirish imtihoni dasturi O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining majlisida muhokama qilindi va _____ 2026 yilda foydalanishga tavsiya etildi.

Tuzuvchilar:

Saidov S.Sh.	- Siyosiy fanlar kafedrasi mudiri, s.f.d., professor.
Muitov D.S.	- Siyosiy fanlar kafedrasi dotsenti, s.f.n.
Zamonov Z.T.	- Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri, PhD., dots.
Davronova F.R.	- Siyosiy fanlar kafedrasi dotsenti, PhD.
Yarmuxamedova I.N.	- Siyosiy fanlar kafedrasi dotsenti, PhD.

Taqrizchilar:

Qodirov A.Q.	- Alfraganus universiteti professori, f.f.d., professor.
Yakubov B.S.	- O'zLiDeP Siyosiy kengashi rais o'rinbosari, s.f.d., professor.

MUNDARIJA

1. Kirish.....
2. Imtihon tuzilishi.....
3. Kirish imtihonlarini asosiy talablari.....
4. Xalqaro munosabatlar va uning asosiy yo‘nalishlari
5. Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimi
6. Adabiyotlar ro‘yxati.....

KIRISH

XX asrning oxiri XXI asr boshlarida jahon miqyosida jiddiy, siyosiy, iqtisodiy, gumanitar, texnologik xususiyatdagi o'zgarishlar yuz bera boshladi. Bu o'zgarishlar globallashuv nomi bilan siyosiy fanlarga kirib keldi. Globallashuv jarayonlari, birinchi navbatda, xalqaro munosabatlarga ta'sir eta boshladi. Natijada davlatlar orasidagi o'zaro aloqalar shaffoflashmoqda, mintaqaviylashuv jarayonlari kuchayib bormoqda. Xalqaro munosabatlarda yangi ishtirokchilar sifatida xalqaro moliyaviy, iqtisodiy tashkilotlar, yangi mustaqil davlatlar xalqaro siyosatning subyekt sifatida kirib kelmoqda. Xalqaro tashkilotlarning rivojlanishi, ayniqsa, hukumatga tegishli bo'lmagan xalqaro tashkilotlar faoliyati kuchayib bormoqda. Bu jarayonlarga mustaqil davlatlarning kirib borishi va o'z manfaatlarini himoya qilish muammolari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday sharoitda hozirgi zamon Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqaviy taraqqiyotining siyosiy muammolarining xususiyatlarini, asosiy ishtirokchilarining ayniqsa, davlatning maqsad va vazifalari, xalqaro tashkilotlar, xalqaro nohukumat tashkilotlar haqida yetarli bilimga ega bo'lish, ular bilan o'zaro aloqalarni yo'lga qo'yish bo'yicha tajriba va malakaga, axborotga ega bo'lish hamda siyosiy faoliyatda qo'llash muhimdir.

XALQARO MUNOSABATLAR, JAHON VA MINTAQA TARAQQIYOTINING SIYOSIY MUAMMOLARI FANINING OBYEKTI, PREDMETI VA STRUKTURASI

Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqaviy taraqqiyotining siyosiy muammolari tushunchasi. Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqaviy taraqqiyotining siyosiy muammolari nazariyasi va vazifalari. Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqaviy taraqqiyotining siyosiy muammolari tadqiq etishda kompleks yondashuvlar. Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqaviy taraqqiyotining siyosiy muammolari o'rganish tarixi. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda turli xil qarashlar. Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqaviy taraqqiyotining siyosiy muammolari strukturasi. Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqaviy taraqqiyotining siyosiy muammolarining strukturaviy darajalari. Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqaviy taraqqiyotining siyosiy muammolari tizimi, uning komponentlari. Xalqaro va davlatlararo tizimlar. Xalqaro siyosiy makon tushunchasi: xalqaro munosabatlar tizimi strukturasiidagi munosabat turlari va asosiy elementlari. Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqaviy taraqqiyotining siyosiy muammolari tizimida subyektlik.

XALQARO MUNOSABATLARGA DOIR SIYOSIY MUAMMOLARI O'RGANISHNING METODOLOGIK TAMOYILLARI

Xalqaro munosabatlarni o'rganishning asosiy metodologik tamoyillari. Tarixiylik tamoyilining tarixiy sharoit bilan o'zaro aloqalari. Xalqaro hayot taraqqiyoti va uning asosiy bosqichlari. Sistemalilik tamoyili xalqaro

munosabatlarning elementi sifatida. Har tomonlamalilik tamoyili, davlat va xalq o'rtasidagi munosabatlar sistemasining tarkibiy bo'g'inlari. Obyektivlik tamoyili — xalqaro munosabatlar rivojlanishini belgilab beruvchi qonuniyat.

XALQARO MUNOSABATLAR MUAMMOLARINING TADQIQOT USHLUBLARI

Uslub obyektni ilmiy nuqtayi nazardan o'rganish vositasi sifatida. Ilmiy g'oyalarni amaliyotga tadbiq etishda uslubning roli. Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqaviy taraqqiyotining siyosiy muammolarini tadqiq etishdagi metodologik yondashuvlar va uslublar o'rtasidagi bog'liqlik. Kuzatish uslubi va uning turlari. Vaziyatni tahlil qilish ushlublari. Hujjatlarni o'rganish uslubi – ijtimoiy, siyosiy ilmlarni o'rganish vositasi. Taqqoslash – Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqaviy taraqqiyotining siyosiy muammolari doirasida mamlakatlarning alohida-alohida jihatlarini o'rganuvchi uslub. Kontent-analiz – iyyosiy matnlarni o'rganish va ta'riflab berish usuli. Ivent-analiz uslubi – qayta ishlangan axborot ma'lumotlarini tizimlashtirish asosi. Kognitiv xaritalash – siyosiy muammolarni tahlil qilish uslubi. Eksperiment – nazariy gipotezalar, xulosalar va qarorlarni tekshirish metodi. Xalqaro munosabatlarda bashorat ushlublarining o'ziga xosligi. Delfi – so'zlarni tizimli nazorat qilish usuli.

XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA XALQARO HAMKORLIK NAZARIYASI

Xalqaro hamkorlik tushunchasi va turlari. Xalqaro hamkorlik tushunchasini aniqlashdagi konsensuslar. Xalqaro hamkorlik sharoitidagi xalqaro munosabatlarning zamonaviy nazariyalaridagi yo'nalishlar. Xalqaro anarxiya konsepsiyasi. Xalqaro hamkorlik tahlilida zamonaviy sotsiologik yondashuvlar va ularning turlari. Neorealizm va neoliberalizm qarashlari va ulardagi g'oyalar.

ICHKI VA TASHQI SIYOSAT

Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqaviy taraqqiyotining siyosiy muammolarida ichki va tashqi siyosatning asosiy tamoyillari. Dunyoviy siyosat tushunchasining mazmun va mohiyati. Dunyoviy fuqarolik jamiyati bilan dunyoviy fuqarolik tushunchalaridagi o'xshashlik va ziddiyatlar. Dunyoviy siyosatda davlatlarning jahon hamjamiyatidagi maqomi. Dunyoviy siyosatning Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqaviy taraqqiyotining siyosiy muammolari tizimiga ta'siri. Davlatning ichki va xalqaro siyosati orasidagi o'zaro aloqalar.

XALQARO MUNOSABATLARDA MILLIY MANFAATLAR

Milliy manfaatlar tushunchasining mazmuni, uning asosiy elementlari, metodologik tamoyillari va siyosiy ahamiyati. Milliy manfaat mezonlari va tuzilishi. Suveren davlat shakllanishida milliy mafaatlar. Davlatning tashqi siyosatida milliy manfaatlar. Davlat milliy xavfsizlik konsepsiyalari, harbiy doktrina, tashqi siyosat tamoyillari, mudofaa strategiyasini ishlab chiqishda milliy manfaatlarning roli. Milliy manfaat davlat tashqi siyosatining tahliliy vositasi va mezon sifatida.

XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA INSON HUQUQLARI

Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqaviy taraqqiyotining siyosiy muammolarini tartibga soluvchi huquqiy va ahloqiy meyorlar. Huquqiy tafakkur darajasi, odob-axloq omillari. Xalqaro munosabatlarda inson huquqlari muammolari. Xalqaro huquq tushunchasi, uning prinsiplari va tarixiy shakllari. Zamonaviy xalqaro huquqning xalqaro tizimda amal qilishi. Xalqaro gumanitar huquqlar va gumanitar aralashuvlar konsepsiyasi. Inson huquqlari va xalqaro gumanitar huquqning o'zaro bog'liqligi.

XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA XAVFSIZLIK MUAMMOSI

Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqaviy taraqqiyotining siyosiy muammolari va xalqaro muhit. Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqaviy taraqqiyotining siyosiy muammolarini rivojlanishida xalqaro xavfsizlik. Xalqaro xavfsizlikni anglashda asosiy nazariy va amaliy konsepsiyalar. Jahon ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotining globallashuvi va xalqaro xavfsizlik. Xavfsizlikni realistik tushunish. Xavfsizlik tushunchasining liberal-idealistik ko'rinishi.

O'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA XALQARO MUNOSABATLAR, JAHON VA MINTAQAVIY TARAQQIYOTINING SIYOSIY MUAMMOLARINI O'ZIGA XOS TAMOYILLARI

O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integrasiyalashuvida tashqi siyosat va xalqaro aloqalarning ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy tamoyillari. O'zbekistonning MDH mamlakatlari orasida iqtisodiy integrasiyani rivojlantirishdagi o'ri. O'zbekistonning Yevropa, Osiyo va Tinch okeani havzasi mamlakatlari bilan o'zaro manfaatli aloqalari. O'zbekiston Respublikasining Yevropa davlatlari bilan siyosiy-diplomatik, iqtisodiy va madaniy aloqalari. O'zbekistonning Yaqin, O'rta Sharq hamda arab davlatlari bilan hamkorlik aloqalari.

IMTIHONGA TAYYORGARLIK KO'RISH VAQTI

Umumiy vaqt – 30 daqiqa

1-savol uchun – 10 daqiqa

2-savol uchun – 10 daqiqa

3-savol uchun – 10 daqiqa

BAHOLASH MEZONLARI

Ball	Baho	Talabgorning bilim darajasi
90-100	A'lo	Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqaviy taraqqiyotining siyosiy muammolari fani metodologiyasining asosiy qonun-qoidalari hamda siyosiy fanlarning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati to'g'risida aniq bilimga ega bo'lish va to'liq xulosa chiqarish. Fanning bilish konsepsiyalari to'g'risida ijodiy fikrlay olish. Siyosiy fanlar metodologiyasi to'g'risida mustaqil mushohada yurita olish. Nazariy bilimni amaliyotda qo'llay bilish. Mavzularning mazmun va mohiyatini to'liq tushunish va ularni bayon qilib berish hamda to'liq tasavvurga ega bo'lish.
70-89	Yaxshi	Siyosiy fanlar ta'limotlari to'g'risida mustaqil mushohada yurita olish. Nazariy bilimni amaliyotda qo'llay olish. Mavzularning mazmun va mohiyatini to'liq tushunish va ularni bayon qilib berish hamda to'liq tasavvurga ega bo'lish.
60-69	Qoniqarli	Mavzularning mohiyatini tushunish va ularni bayon qilib berish hamda tasavvurga ega bo'lish.
0-59	Qoniqarsiz	Siyosiy fan yuzasidan aniq tasavvurga va ko'nikmaga ega bo'lmaslik.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. T. O'zbekiston. 2023.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.- Toshkent: "O'zbekiston – 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.- Toshkent: "O'zbekiston" - 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.- Toshkent: "O'zbekiston" - 2017.
5. O'zbekistan Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF- 4947-sonli "2017-2021-yillarda O'zbekistan Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
6. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017-yil 14-yanvar // SH.M. Mirziyoyev, Toshkent: O'zbekistan, 2017-y., 104 b.
7. Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-18-jildlar. T. O'zbekiston. 1996-2010.

Darsliklar va o'quv qo'llanmalar:

8. Жўраев С. Замонавий халқаро муносабатлар.Т., 2007.
9. Жўраев С. Ўзбекистон Республикаси ташқи сиёсати ва дипломатияси. Т.2007.
- 10.Жураев С.А., Касымова Н.А. Актуальные вопросы современных международных отношений. Т. 2008.
- 11.Фармонов Р., Жўраев Қ. Ҳалқаро муносабатлар тарихи. Т., ЖИДУ. 2013.
- 12.Фармонов Р., Жўраев Қ. , Турдиев М. Замонавий сиёсатшунослик: назария ва амалиёт. ЖИДУ. Т., 2013.
- 13.Темур тузуклари – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти,-1996.
- 14.Жоъраев Т.А. Миллий давлатчилик: хавфсизлик ва барқарорлик. – Т.: "Академия", 2007.
- 15.Жумаев Р.З. ва бошқ. Сиёсий ислохотлар стратегияси. "Академия" Т. 2009.
- 16.Saidov S.Sh. Markaziy Osiyo: fuqarolik jamiyati va integratsiya muammolari. // Monografiya. –Toshkent: O'zDJTU Kengashi 9-son qarori. 2021. –230 b.
- 17.Саидов С.Ш., Темирбаева А.К. Международное регионоведение. О'quv qo'llanma. O'zDJTU 2025-yil 17-oktabrdagi 456/11-08-sonli buyrug'iga asosan. –Toshkent, – 130 bet.